ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

NIYAZOVA MUNIRA JUMANAZAROVNA

O‘ZBEK-NEMIS SENTIMENTAL NASRI POETIKASI VA TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

(“Yosh Verterning iztiroblari”, “Sevgim-sevgilim”, “Sunbulaning ilk shanbasi” asarlari misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 821.512.133.091-1;
821.112.2.091-1

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Niyazova Munira Jumanazarovna
O‘zbek-nemis sentimental nasri poetikasi va tipologik xususiyatlari (“Yosh Verterning iztiroblari”, “Sevgim-sevgilim”, “Sunbulaning ilk shanbasi” asarlari misolida) 3

Niyazova Munira Jumanazarovna
Poetics and typological features of uzbek and german sentimental prose (based on examples: “The Sorrows of Young Werther”, “My love, my sweetheart”, “The first saturday of sunbula”)..... 27

Ниязова Мунира Жуманазаровна
«Поэтика и типологические особенности узбекско-немецкой сентиментальной прозы (на примере произведений «Страдания юного Вертера», «Любовь моя любимая», «Первая суббота сунбуля»)..... 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ..... 55

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

NIYAZOVA MUNIRA JUMANAZAROVNA

O‘ZBEK-NEMIS SENTIMENTAL NASRI POETIKASI VA TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

(“Yosh Verterning iztiroblari”, “Sevgim-sevgilim”, “Sunbulaning ilk shanbasi” asarlari misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.3.PhD/Fil3877 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Yakubov Islamjon Axmedjanovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Yusupova Dilnavoz Raxmonovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Ko‘chimov Ulug‘bek Qo‘chqorovich filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “23” 04 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (334 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “5” 04 kuni tarqatildi.
(2025-yil “5” 04 dagi 1- raqamli reestr bayonnomasi)

Sh.S.Sirojiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., akademik

A.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

U.H.Jo‘raqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon badiiy tafakkuri taraqqiyotining bir necha asrlik tarixi shundan guvohlik beradiki, insonni har taraflama epik planda tasvirlash, antroposentrik yondashuvlarning ko‘lami kengaygani asnosida adabiyotda turli adabiy hodisalar, oqim va metodlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi hamda keng yoyilishiga olib keldi. Xususan, Renessans adabiyotida insonni chuqur o‘rganish markazga qo‘yildi. Klassitsizm adabiyotni qat’iy qoidalar asosida shakllantirishga, aqliy tafakkur qolipi doirasida tizimlashtirishga urindi. Bundan kelib chiqqan irratsional oqimlar – romantizm, sentimentalizm, modernizm kabi adabiy oqim va metodlar adabiyot maydoniga kirib keldi. Natijada adabiyot insonning reallikdan tashqaridagi tuyg‘ular dunyosi, irratsional olam tasvirlarini ifodalab, inson qalbini tahlil qilishga kirishdi.

Dunyo adabiyotidagi bunday ijtimoiy-madaniy, adabiy-estetik munosabatlar, xalqlararo badiiy tafakkur qiyosiy-tarixiy jihatdan, adabiy tur va janrlar, obraz, uslub, motiv masalalariga ko‘ra o‘rganiladi. Xususan, Sharq va G‘arb adabiyotining tipologik xususiyatlari har ikki mintaqa adabiyotlariga qanday ta’sir o‘tkazgani, adabiy aloqalar, tarixiy tipologiya kontekstida tadqiq etiladi. Asosida inson sezgisi, hissiyoti, tuyg‘usi turuvchi, insonni g‘ayrishuuriy tasvirlashga asoslangan sentimental adabiyot, uning tadrijiy bosqichlari, unga xos xarakterlar va xususiyatlar, ayniqsa, nemis sentimental nasri, unda Y.V.Gyote ijodining tutgan o‘rni Sharq va G‘arb badiiy tafakkuri kontekstida tadqiq etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek adabiyoti ham bu adabiy hodisadan chetda qolmagan. Yangilangan poetik tafakkur bilan yangicha uslub yo‘lidan borayotgan adiblarimiz asarlari tadqiq va tahlil qilinganda o‘zbek adabiyotshunoslik ilmida yangi nazariy bilimlar bermoqda. O‘zbek adabiyotida sentimental nasr namunalari, sentimentallik elementlarini, asosan, O‘lmas Umarbekov, Abduqayum Yo‘ldoshev singari adiblar ijodida kuzatamiz. Bu borada yozuvchilarimiz mumtoz adabiyotimizda mavjud an’analar, obrazlar, motivlarni o‘zlashtirib, milliy xarakterdan kelib chiqib, qolaversa, jahon sentimental yozuvchi va shoirlari L.Stern, J.J.Russo, Y.V.Gyote tajribalaridan foydalangan holda sentimental yondashuvdagi yangi asarlarini yaratdi. Shu bois, o‘zbek adabiyotining boshqa mamlakatlar adabiyoti bilan aloqalari, ta’sir doiralarini o‘rganish va tadqiq qilish ahamiyatlidir. Zero, “adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”[1]. Bugungi adabiy jarayonda bo‘y ko‘rsatayotgan, turli adabiy oqim va ta’limotlarning o‘zaro ta’sir masalalarini jiddiy tadqiq qilish qiyosiy adabiyotshunoslik oldiga muhim vazifa qo‘ymoqda. Mana shu jihat tadqiqotimizning dolzarbligi va ayni kunda milliy adabiyotshunosligimizdagi zaruratini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot

[1] Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017 йил 4 август.

strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog‘ida adabiyotning ta’sir kuchini oshirish bo‘yicha topshiriqlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Adabiyotshunoslikda sentimentalizm va sentimental janr muammolari jahon adabiyotshunosligida L.I.Timofeyev, V.Xalizev, Y.Borev, M.M.Baxtin, R.Uellek, O.Uorren, G.N.Pospelov, K.Rotman, G.Yeger, P.Shelli, R.A.Laskova, I.I.Gluxovskaya, S.I.Melnikova kabilarning adabiyot nazariyasi va adabiyotshunoslikka oid ishlarida tadqiq qilingan[2].

O‘zbek adabiyotshunosligida sentimental janrning nazariy asoslari va sentimentallik xususiyatlari haqida A.Fitrat, I.Sulton, D.Quronov, U.Jo‘raqulov, K.Hamroyev[3], shuningdek, Y.V.Gyote, O‘.Umarbekov, A.Yo‘ldoshevning ijodi,

---

[2] Литературный энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1987; Словарь литературоведческих терминов. Редакторы-составители Л.И.Тимофеев и С.В.Тураев. – Москва: Просвещение, 1974; Хализев В. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1994; Борев Ю. Эстетика. – Москва: Издательство политической литературы, 1981; Шелли П.Б. Ғарб шамоли. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014; Поспелов Г.Н. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1978; Поспелов Г.Н. Лирика. – Москва, 1976; Rothmann. K. Erläuterungen und Dokumente zu Johann Wolfgang Goethe: Die Leiden des jungen Werthers. Stuttgart, 1971; Jäger G. Die Leiden des jungen Werther. Kommentare, Abbildungen, Materialien zu Die Leiden des jungen Werthers und Plenzdorfs Neuen Leiden des jungen Werther. Wien. 1984; Meyer-Kalkus R. Werthers Krankheit zum Tode. Pathologie und Familie in der Empfindsamkeit // Urszenen. Literaturwissenschaft als Diskursanalyse und Diskurskritik. Frankfurt, 1977; Ласкова Р.А. Творчество Москва. Аглямова: тематика, жанры и поэтика. Дисс.канд. филол. наук, – Казань, 2008; Глуховская И.И. “Сентиментальный натурализм” в русской литературе 40-х годов XIX века (проблема метода). Дисс.канд. филол. наук. – Калинин, 1984; Мельникова С.И. Август фон Коцебу в России: К проблеме русско-немецких театральных связей. Дисс.док. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2004; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Москва: Наука, 1970. – С. 266; Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – Москва, 1988; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Наука, 1979. – С. 85; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Наука, 1973. – С. 207; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Наука, 1979. – С. 422; Р.Уэллек и О.Уоррен. – Москва: Прогресс, 1978. – С. 95–107; Рикёр П. Герменевтика. Этика. Политика: Московские лекции и интервью. – Москва, 1995.

[3] Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Адабиёт ҳавасмандлари ҳам адабиёт муаллимлари учун. Нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995; Султон И. Адабиёт назарияси.

ularning asarlariga oid tadqiqot ishlarida uchratamiz. S.Mirvaliyev, Y.Egamova, A.Saidov, Q.Yo‘ldoshev, B.Karimov, I.Yoqubov, X.Rahimov, A.Xolmurodov, A.Mahmudov, Y.Eshmatova, O.Bozorov kabi olimlarning ilmiy maqolalari, monografik ishlarida u yoki bu darajada tadqiq qilingan[4]. Ammo o‘zbek adabiyotshunosligida Y.V.Gyote, O‘.Umarbekov va A.Yo‘ldoshev asarlarida sentimentallik masalasi tipologik aspektda maxsus o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Jahon va o‘zbek adabiyotini qiyosiy-tipologik o‘rganishning umumnazariy muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nemis mutafakkir shoiri, yozuvchisi Y.V.Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” va o‘zbek adiblari O‘.Umarbekov “Sevgim-sevgilim”, A.Yo‘ldoshevning “Sunbulaning ilk shanbasi” asarlarining sentimentallik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va o‘zaro ta’sir masalalari, umumiylik va individuallikka xos tipologik jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sentimental adabiyot, uning maydonga kelish omillari va badiiy kriteriylari, syujet, obraz va uslub o‘ziga xosliklarini aniqlash, Sharq-u G‘arb sentimental nasrining tipologik jihatlarini ochib berish;

Y.V.Gyote “Yosh Verterning iztiroblari” romanining nemis adabiyoti tarixi, Yevropa va Sharq xalqlari adabiyoti an’analariga poetik munosabatini tahliliy asoslash;

o‘zbek adabiyotida sentimental nasrning o‘rni, Yevropa va Sharq mumtoz adabiyoti badiiy konsepsiyalari, shakl o‘ziga xosliklari bilan aloqadorligi, milliyligi hamda individualligi masalalarini yoritish;

O‘.Umarbekov va A.Yo‘ldoshev asarlarida sentimental syujet, sentimental obraz, sentimental uslubga xos murakkab tasvir usullari, original talqin yo‘llarini ilmiy-nazariy jihatdan isbotlash.

Tadqiqot obyekti sifatida Y.V.Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari”, O‘.Umarbekov “Sevgim-sevgilim”, A.Yo‘ldoshevning “Sunbulaning ilk

---

– Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 408 б.; Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. 2-қисм. – Алматы: CyberSmith, 2021; Қуронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013; Jo‘raqulov U., Hamroyev K. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Lesson press, 2021. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Ғ.Ғулом НМИУ, 2015.

[4] Мирвалиев С. Ўлмас Умарбеков. “Севгим-севгилим”дан “Қизимга мактуб”гача. – Тошкент: Шарқ, 2004; Истеъдоднинг қўш қаноти (Ёзувчи Ўлмас Умарбеков ижодига бир назар) – Тошкент: Ёзувчи, 1993; Норматов У. Насримиз тамойиллари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978; Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000; Тўраев Д. Давр ва ижод масъулияти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004; Ёқубов И. Мустақиллик даври романлари поэтикаси. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, ЎзТА ва ФИ, 2018; Мирзаев И. Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услубий ранг-баранглиги. – Тошкент: Фан, 1983; Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004; Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007; Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: Чўлпон, 2002; Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992; Маҳмудов А. Лессинг ижодида Шарқ маданияти талқини. Монография. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2013. Эшматова Ю.Б. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигида аёл руҳиятининг бадиий талқини. Филол.ф.б.ф. д-ри (PhD) дисс... – Тошкент, 2020; Bozorov O. Epistolyar romanda voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlari va qahramon muammosi (Iogann Volfgang fon Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” hamda Iqbol Mirzoning “Bonu” romanlari misolida)” filol.f.b.f.d-ri (PhD) diss… – Buxoro, 2023.

shanbasi” asarlari tanlangan. Zarur o‘rinlarda jahon va o‘zbek adabiyotidagi boshqa manbalarga ham murojaat qilingan.

Tadqiqot predmetini nemis (xususan, Y.V.Gyote ijodi) va o‘zbek nasri (O‘.Umarbekov, A.Yo‘ldoshev asarlari)da sentimentallik xususiyatlari tipologiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, struktur-tahlil, biografik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jahon badiiy tafakkurida sentimentallikning maydonga kelish omillari tekshirilib, uning ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik namoyon bo‘lish yo‘llari va usullari aniqlangan; sentimental adabiyotga xos badiiy tamoyillar, umumiy va o‘ziga xos xususiyatlar, Sharq va G‘arb sentimental nasrining tipologik jihatlari ochib berilgan;

Y.V.Gyote “Yosh Verterning iztiroblari” romanining nemis adabiyoti tarixi, G‘arb va Sharq xalqlari adabiyoti an’analariga poetik munosabati nazariy jihatdan asoslangan;

o‘zbek adabiyotida sentimental nasr elementlari, buning Yevropa va Sharq mumtoz adabiyoti badiiy konsepsiyalari, shakldagi o‘ziga xoslik, milliylik va individuallik masalalari dalillangan;

O‘.Umarbekov va A.Yo‘ldoshev ijodida sentimental syujet, sentimental obraz, sentimental uslubga xos murakkab ifoda usullari, original talqin yo‘llari ilmiy-nazariy jihatdan isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jahon va o‘zbek adabiyotshunosligi materiallarini qiyoslash asosida yoritib berishning qiyosiy adabiyotshunoslik, jahon adabiyoti, adabiy aloqalar, adabiy ta’sir muammolariga doir monografik tadqiqotlar tayyorlash, o‘quv, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqishdagi ilmiy ahamiyati dalillangan;

dissertatsiyaning nazariy bazasini shakllantirish maqsadida qiyosiy-tipologik metodga doir jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida mavjud materiallardan kelib chiqib, ilmiy tasnif asosida ishlab chiqilgan. Y.V.Gyote, O‘.Umarbekov va A.Yo‘ldoshev ijodining adabiyotshunoslikda o‘rganilish masalalari ilmiy asosda yoritilgan;

har uch asardagi sentimentallik xususiyatlari qiyosiy tahlil etilib, nazariy umumlashma va xulosalar chiqarilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida nazariy ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, tadqiqotning mavjud adabiyotshunoslik nazariyalariga mosligi, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi hamda ishonchliligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, adabiyotshunoslikning ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tahlil tamoyillari, o‘rganilgan materiallarning ilmiy tasnifi asosida tadqiq etilishi, shunga ko‘ra, ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar o‘zining zamonaviyligi, dolzarbligi, yangilangan poetik ifoda shakli hamda

sentimental talqin tipologiyasiga doir ilmiy natijalar adabiy jarayonda yozuvchi ijod laboratoriyasini boyitishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy ta’sir, adabiy aloqalar, tarjimachilik va jahon adabiyoti, sentimental nasr, sentimental qahramon xarakteri muammolariga doir monografik tadqiqotlar yaratishda, qiyosiy tipologiya muammolarini atroflicha tushunish va tushuntirishga qo‘l kelishi, oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlari uchun darslik, o‘quv hamda uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Yosh Verterning iztiroblari”, “Sevgim-sevgilim” va “Sunbulaning ilk shanbasi” asarlarida sentimental holatlar, xususiyatlarni tadqiq etish asosida:

o‘zbek adabiyotida sentimental nasr elementlari, Yevropa va Sharq mumtoz adabiyoti badiiy konsepsiyalari, shakldagi o‘ziga xoslik, milliylik va individuallik masalalari haqidagi ilmiy-xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan F3-201912258-raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihaning 2022–2023-yillarga mo‘ljallangan ishlarni bajarishda foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 25-noyabr 04/1-3364-son ma’lumotnomasi) Natijada, o‘zbek adabiyotida sentimental nasr unsurlari G‘arb va Sharq mumtoz adabiyotining badiiy konsepsiyalaridan ta’sirlangan holda shakllangani, uning shakliy o‘ziga xosligi an’anaviy va yangi uslub uyg‘unligida rivojlanganiga oid ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarini boyitishga xizmat qilgan;

O‘.Umarbekov va A.Yo‘ldoshev ijodida sentimental syujet, sentimental obraz, sentimental uslubga xos murakkab ifoda usullari, original talqin yo‘llari ilmiy-nazariy jihatdan isbotlanganiga doir ilmiy-xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan F3-201912258-raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihaning 2022–2023-yillarga mo‘ljallangan ishlarni bajarishda foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 25-noyabr 04/1-3364-son ma’lumotnomasi) Natijada, o‘zbek adabiyotida sentimental syujet, sentimental obraz, sentimental uslubga xos murakkab poetik ifoda usullarida doir ilmiy materiallar tayyorlashga asos bo‘lgan;

jahon badiiy tafakkurida sentimentallikning maydonga kelish omillari tekshirilib, uning ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik namoyon bo‘lish yo‘llari va usullari aniqlangan; sentimental adabiyotga xos badiiy tamoyillar, umumiy va o‘ziga xos xususiyatlar, Sharq va G‘arb sentimental nasrining tipologik jihatlari ochib berilganiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 25-noyabr, 04/1-3365-son ma’lumotnomasi) Natijada, jahon badiiy tafakkurida sentimentallikning shakllanish omillari, uning ijtimoiy-falsafiy va badiiy-estetik ifodalanish usullari aniqlanib, sentimental adabiyotga xos tamoyillar va xususiyatlar, shuningdek, Sharq va G‘arb sentimental nasrining tipologik jihatlariga doir materiallar tayyorlashga asos bo‘lgan;

Y.V.Gyote “Yosh Verterning iztiroblari” romanining nemis adabiyoti tarixi, G‘arb va Sharq xalqlari adabiyoti an’analariga poetik munosabati nazariy jihatdan asoslanganiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 25-noyabr, 04/1-3365-son ma’lumotnomasi) Natijada, “Yosh Verterning iztiroblari” romanining nemis adabiyoti tarixi, G‘arb va Sharq xalqlari adabiyoti an’analariga poetik munosabati, mushtarak jihatlari nazariy jihatdan asoslanganiga doir materiallar bilan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xalqaro hamda 4 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 126 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati yoritilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi hamda vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Adabiyotda sentimental talqin va uning umumnazariy muammolari”** deb nomlanib, ikki fasldan tashkil topgan. Birinchi faslda *“Sentimental adabiyot tarixi va uning adabiyotshunoslikda o‘rganilishi”* degan muammo qo‘yilgan.

Sentimentallik va sentimental adabiyot masalasi insoniyat badiiy-estetik tafakkurining qadimiy masalalaridan bo‘lib hisoblanadi. Masalaning qadimiyligidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, uning adabiyotshunos, tanqidchi va

nazariyotchilar tomonidan o‘rganilishi ham juda katta xronologik ko‘lamni tashkil etishi ayonlashadi.

Jahondagi ijodiy metodlar, adabiy oqimlar tartibidan sentimentalizm, klassitsizm adabiyotidan keyin keluvchi, uning o‘rnini almashtiruvchi adabiy yo‘nalish deb qaraladi. Umuman, sentimentalizm insonning ruhiy-botiniy dunyosiga asosiy e’tiborini qaratuvchi, odamni, hayotiy vaziyatlarni va tabiatni botiniy, hissiy dunyosi asosida tasvir etuvchi adabiy yo‘nalishdir. Sentimentalizm rasman adabiy oqim sifatida XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib aniqlangan, tan olingan bo‘lsa-da, uning adabiyotda, badiiy talqin shakli sifatida namoyon bo‘lishi o‘ta qadim zamonlar, qadimgi davr adabiyotiga borib bog‘lanadi.

Sentimentallik va uning asosiy belgisi bo‘lgan hissiy-emotsional holat, ichki qayg‘u-alam, yig‘i, tushkunlik, yolg‘izlikka intilish, hushdan ketish holatlari faqat inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar talqinida aks etmaydi. Sentimentallikning o‘limdan boshqa yana bir muhim asosi borki, bu sevgi-muhabbat yo‘lidagi hissiyotlar junbishi, hijron azobida o‘rtanish, umidsizlik, tushkunlik, ko‘z yosh to‘kishdir. Bu holatni biz barcha xalq qo‘shiqlarida, xalq ijodiyotiga oid romantik ertak, qissa va hikoyalarda uchratishimiz mumkin. Oshiq o‘z dildoriga yetisholmay chekadigan qayg‘u-iztiroblari, tushkunlikdagi yig‘ilari, yor visolidan umidsizlik, ayriliq, sog‘inch holatlari xalq ijod qilgan asarlarda talqinning o‘zak-markazida turadi.

Y.Borev qadimgi hind mifologiyasi misolida ta’kidlaganidek, grek mifologiyasida ham san’atning maydonga kelishini inson va yunon ma’budlari munosabati, tabiat hodisalari, sevgi-muhabbat mojarolari, sarguzashtlari misolida talqin etilish usuliga duch kelamiz. Xuddi shu jihat qadim grek afsona va miflarida ham o‘z aksini topgan. Masalan, Narsiss haqida mifni eslash kifoya.

Sharqda mukammal darajada shakllangan Islom tasavvuf va dunyoviy adabiyoti an’analarini sevib o‘rganib, o‘zlashtirgan Yohann Volfgang Gyote o‘zining “G‘arb-u Sharq devoni”, “Faust” asarlarida buni keng va atroflicha namoyon etgan. Gyotening yoshroq paytida yozilgan va bizning dissertatsiyamiz obyekti bo‘lmish “Yosh Verterning iztiroblari” sentimental romanida ham bevosita aks etgan. Oshiq Verter ham xuddi Narsiss, Farhod, Majnun, Tohir va Zuhralar kabi o‘z muhabbatiga erisha olmaydi. Unga faqat o‘lim sharobi nasib etadiki, bizningcha, Gyote asarining bosh badiiy g‘oyasi ham shunda namoyon bo‘ladi. O‘lmas Umarbekovning “Sevgim-sevgilim” sentimental qissasida esa oshiq o‘lim topmaydi. Biroq A.Oripov lirik qahramoni singari bir umrlik qayg‘u, iztirob olovida yonishga giriftor bo‘ladi. Ammo tadqiqot ishimizning yana bir obyekti “Sunbulaning ilk shanbasi” qissasi haqida bu gapni ayta olmaymiz. Asar qahramoni muhabbat savdosida yona-yona oxiri o‘lim topadi. Bu bilan Farhod, Majnun, Tohirlar silsilasidan o‘zining munosib o‘rnini egallaydi.

Umuman, sentimental adabiyot genezisi haqidagi izlanishlar va nazariy qaydlardan kelib chiqib, uning yuzaga kelish omilini quyidagi to‘rtta to‘xtam bilan belgilash mumkin: 1) sentimentalizm ijodkorning erkinlikka bo‘lgan kuchli ishtiyoqi va intilishi natijasida maydonga keladi; 2) sentimental adabiyotning maydonga kelishida qadim adabiyot (antik grek va italyan) an’analari turtki bo‘lib hisoblanadi; 3) sentimental asarning paydo bo‘lishida ijodkorning shaxsiy

qiziqish, intilishlari va tajribalari o‘ziga xos ahamiyatga ega; 4) sentimental adabiyot namunasi dunyo bo‘ylab qilingan safarlar natijasida dunyoga keladi.

Sentimentallik va sentimental adabiyot muammosi, uning nazariy xususiyatlari qadimgi va zamonaviy adabiyot manbalari asosida dunyo va o‘zbek adabiyotshunosligida izchil tarzda o‘rganib kelinmoqda. Bunday tadqiqot va talqinlarda faqat sentimental adabiyot genezisi, tarixi va qadimiy manbalarda aks etishi masalalarining o‘zigina o‘rganilmaydi, albatta. Sentimentalizmning muayyan millatlar adabiyotidagi ko‘rinishlari, uning vakillari, aniq bir yozuvchi ijodidagi o‘rni, ma’lum bir asarda namoyon bo‘lishi, estetikasi, falsafasi singari nazariy muammolar doirasida kompleks tadqiq etiladi, ta’riflari, tavsiflari, o‘ziga xos xususiyatlari qayd etiladi.

Sentimental nasrda yetakchilik qiluvchi kechinma o‘z tabiatiga ko‘ra sentimental kechinmadir. Yozuvchining voqelikka nisbatan sentimental munosabati – **achinish, yig‘i, tushkunlik va hamdardlik** singari tuyg‘u-kechinmalar sentimentalizm yo‘nalishida yozilgan barcha asarlarga xosdir. O‘zbek zamonaviy adabiyotshunosligining asoschilaridan biri, professor Abdurauf Fitrat sentimentalizmga ta’rif berar ekan, biz yuqorida ilgari surgan fikrni to‘la ravishda tasdiqlagandek bo‘ladi: “Sentimentalizm: bu aqliyun oqimig‘a qarshu bo‘lg‘an falsafa (hissiyun falsafasi) oqimining atamasidir, mana shul falsafa oqimiga yonashqon adabiy oqim “sentimentalizm” oqimidir, bu oqimdag‘i shoir-adiblar bu jismoniy, moddiy dunyomizdan boshqa ma’naviy, ruhoniy bir dunyoning borlig‘iga ishonadir. Ko‘zimiz oldida op-ochiq, yap-yalang‘och turg‘an mana shul moddiy haqiqatdan boshqa bir ma’naviy haqiqat bor deb o‘ylaydir…”[5]. A.Fitrat jadid mutafakkiri, buyuk bir pedagog sifatida sentimentalizm adabiyotiga ta’rif berar ekan, uni o‘quvchi uchun tushunarli tarzda soddalashtirib talqin etgani aniq seziladi. A.Fitratning sentimentalizm haqidagi fikrlari bu oqimga doir ayni haqiqatni ifodalagan. Hatto uning “Eng buyuk tasavvufchi shoirimiz Ahmad Yassaviyni shu oqimning kishisi deb ko‘rsatmak mumkindir” degan xulosasi ham shunchaki misol keltirish ma’nosida aytilmagan.

Bobning 2-fasli *“Sharq-u G‘arb sentimental nasrining poetik mushtarakligi masalasi”* tarzida sarlavhalangan. Unda Sharq va G‘arb adabiyotida sentimentalizm janri mushtarakligi masalasi ilmiy tahlil qilingan.

Istalgan bir yozuvchi ijodini tipologik o‘rganish tadqiqotchidan uning qaysi adabiy muhitga mansubligi, hududiy va milliy mansubiyati xususida bilishni talab etadi. Ayni paytda, Sharq va G‘arb adabiyotining o‘zaro tipologik va adabiy ta’sir masalasini o‘rganish ham tadqiqot obyektiga nisbatan tarixiy yondashuv ehtiyojiga olib keladi. Zotan, adabiyot – so‘z san’ati. So‘z san’ati bo‘lishi bilan bir qatorda jahon xalqlari o‘rtasidagi madaniy-tarixiy ko‘prik vazifasini ham bajaradi.

Binobarin, Y.Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” asari G‘arb, Yevropa badiiy-madaniy muhitida paydo bo‘lgan. Demak, bu asar tadqiqotimizning

[5] Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Адабиёт ҳавасмандлари ҳам адабиёт муаллимлари учун. Нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 100.

oldingi paragrafida so‘z yuritilgan Yevropa badiiy tafakkuri va shu tafakkur negizida maydonga kelgan adabiy muhit ta’siridan xoli emas. Shuningdek, qadimgi Gretsiya madaniyati mahsuli bo‘lgan miflar, ertaklar, romanlar, boshqa adabiy janrlar ham ma’lum darajada Gyotening nazaridan chetda qolgan bo‘lishi mumkin emas. Nemis madaniyati, xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari, yozma adabiyot, falsafa va estetik tamoyillar ham uning ijodiga ta’sir etmay qolmagan. Antik Gretsiya mif, folklor manbalarini, mutafakkirlari asarlarini, rassomchilik, haykaltaroshlik, musiqa, me’morchilik san’ati namunalarini, faylasuflari ijodini mukammal darajada o‘rgangan Gyote o‘z ijodining turli sferalarida ulardan foydalangani singari “Yosh Verterning iztiroblari” asarida ham ulardan oziqlangani aniq ko‘rinadi. Qolaversa, Gyote ijodining ko‘p qismi, ayniqsa, she’riyati, dostonlarida ko‘hna Sharq badiiy tafakkuri ham yetarli darajada istifoda etilgani kuzatiladi. Mutafakkirning “G‘arb-u Sharq devoni” Sharq xalqlari tarixi, ijtimoiy muhiti, buyuk shaxslari, shoir-u adiblariga murojaat qilinishi nuqtayi nazaridan bu hisobda safning boshini egallaydi.

O‘lmas Umarbekov va Abduqayum Yo‘ldoshevlarning ham Sharq va G‘arb estetik tafakkuri, ma’naviy ideallari, badiiy adabiyotidan ta’sirlanishi, o‘z sentimental asarlarida bunday an’analarga rioya qilganlari ham tom ma’nodagi haqiqat desak, xato bo‘lmaydi. O‘.Umarbekov ijodida hissiy-emotsional ruhda yozilgan qissa, hikoya va romanlar, sentimentalizmning muhim xossalarini aks ettiruvchi epistolyar uslubdagi maktub-asarlar muhim o‘rin tutadi. Yozuvchiga J.J.Russo, F.Shiller, I.Gyote, A.Pushkin, Y.Lermontov, A.Chexov, F.Stendal, Ch.Dikkens, O.Balzak, F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy, M.Sholoxov kabi yozuvchilar ijodi, muhabbat qissalari, inson obrazini talqin etish yo‘l-usullari, ularda qo‘llanilgan epistolyar uslub ta’sirini inkor etib bo‘lmaydi, albatta. Ayni paytda O‘.Umarbekov bir Sharq kishisi, Sharq muhitida shakllangan yozuvchi sifatida Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Furqat, Haziniy, Huvaydo kabi shoirlar ijodini o‘qib-o‘rganib, ulardan ham ta’sirlanganini alohida qayd etish kerak. G‘arb adabiyotiga xos hissiyotning reallashtirilgan psixologik tasvirlari, epistolyar uslubga xos ichki holatlar ifodasi, o‘zbek mumtoz she’riyatining tasavvufona ishqiy lirikasi, botin holatlarining ramziy talqinlari O‘.Umarbekov asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Yozuvchi A.Yo‘ldoshev O‘.Umarbekovga nisbatan keyingi ijodkorlar avlodiga mansub bo‘lib hisoblanadi. A.Yo‘ldoshev rus adabiyotidan A.Pushkin, M.Lermontov, F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy asarlarini ham o‘quvchi, ham yozuvchi nigohi bilan o‘qigan. Jahon adabiyotining O.Balzak, P.Merime, J.Joys, O’Genri, F.Kafka, A.Kamyu singari vakillarini chuqur o‘rgangan. A.Qodiriy, A.Cho‘lpon, Oybek, G‘.G‘ulom, O.Yoqubov, A.Muxtorlar nasriy asarlarini qiziqib mutolaa qilgan. Navoiy “Xamsa” dostonlarini chuqur o‘rgangan. Demak, Sharq va G‘arb adabiyoti namunalari A.Yo‘ldoshev ijodiga ham kuchli ta’sirini o‘tkazgan.

Umuman, sentimentalizm o‘n sakkizinchi asrning ikkinchi yarmida dastlab lirika va roman janrida, keyinroq meshchanlar dramasida va “ko‘zyoshli komediya” nomi bilan mashhur pyesalarda ham davom etgan. Tabiiylik, azaliylik

va hissiyotlilikning yetakchi ekani haqidagi sensualizm[6] falsafasi poetik talqinlar mohiyatini tashkil qilgan adabiyotda sentimentalizm g‘oyalari aniq aks etgan. Bu adabiyot mohiyati markazida tabiatga yaqin kishi, tabiatga intiluvchi, o‘zining tabiiy hissiyotlarini yuzaga chiqarish orqali o‘zligini namoyish qiladigan odam obrazi turadi. Tabiiy odam obrazi texnik taraqqiyot, sivilizatsiyaning muqarrar g‘olibligi oldida ojiz hissiyotlarni himoya etuvchi, ammo uni saqlab qolishga ichki imkoniyati bo‘lmagan, natijada tushkunlik va ko‘z yoshi bilan bunga javob beradigan obraz sentimental obraz hisoblanib, adabiyotning bunday sentimental vakillari Sharq va G‘arb adabiyotida o‘ziga xos tarzda talqin etilgan. Sentimental obraz aks ettiruvchi odam uchun tarix ham, kelajak ham katta ahamiyat kasb etmaydi. Ular, asosan, bugun bilan yashaydilar. Ko‘z yosh to‘ksalar va tushkun kayfiyatga berilsalar, o‘tmish va kelajak hissiyotlari uchun iztirob chekadilar, xolos.

Inson ichki dunyosi tasviriga asosiy e’tiborni qaratgan sentimentalizm tabiiy ravishda ijtimoiy hayotga xos qonun-qoidalar, rasm-rusumlarga zid qahramon obrazini markazga qo‘yadi. Sentimental odam obrazi ayni jihatlari bilan o‘ta murakkab, hech qanday quyushqon qolipga sig‘maydigan qahramon bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqotimizning ikkinchi bobi **“Yosh Verterning iztiroblari” romani nemis sentimental nasrining yuksak namunasi sifatida”** deb nomlanadi. Mazkur bob ikki fasldan tashkil topgan. 1-faslda “*Nemis adabiyoti tarixida sentimentalizmning o‘rni”* masalasi o‘rganilgan.

Nemis sentimental nasrini qiyosiy-tarixiy kontekstda o‘rganadigan bo‘lsak, “tarixiy-tipologik yondashuv nazariyasiga ko‘ra, tarixda takroriylik amalda bo‘lgani uchun unda universallik xususiyati ustuvor maqomga ega bo‘ladi. Bu nazariya folklor asarlariga dunyo miqyosida kechadigan umumiy ijtimoiy-siyosiy jarayon oqibatida o‘z-o‘zidan tabiiy ravishda yuzaga keladigan estetik hodisa o‘laroq yondashish kerak” [7] bo‘ladi. Sentimentalizm adabiy oqim sifatida adabiyot maydoniga keng yoyilishdan oldin, bu estetik hodisa nemis qahramonlik eposlarida, xalq qo‘shiqlarida, O‘rta asrlar adabiy manbalarida, klassitsizm va ma’rifatchilik adabiyoti namunalarida qisman uchraydi. Chunki biron-bir asar yo‘qki, qahramonning emotsiyasi, hissiy ta’sirchanligi bo‘lmagan.

XII asr Germaniyada feodal jamiyat sharoitida rivojlangan nemis tilidagi dunyoviy-demokratik adabiyot paydo bo‘ldi. U, asosan, fransuz modellari asosida ritsarlik romantikasi bilan ifodalandi. Nemis Shpilmanlari tomonidan ijro etilgan qahramonlik dostonlari keng qamrovli kitoblarga aylantirilgan. Saroy (kurtuaz) romanning uslubi Shpilman dostoniga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatdi. Bu tipdagi dostonda senyor-vassal munosabatlari bilan feodal, xristian jamiyatining o‘rnatilgan turmush tarzi o‘z aksini topgan. Masalan, “nozanin xonim” kulti va

---

[6] **Sensualizm** (lot. sensus – sezgi, his) – bilish nazariyasida sezgilarni bilishning asosiy manbayi deb e’tirof etuvchi yo‘nalish. Bilishning mohiyatini sezgi organlarining faoliyatiga bog‘lab tushuntiradi. S. ratsionalizmga qarama-qarshi bo‘lib, hissiy va ratsional bilimlarning o‘zaro aloqadorligi, imkoniyatlarini o‘zicha talqin etadi. S. vakillari bilimlar odamga tug‘ma ravishda berilmagan, u hayotiy tajriba davomida shakllanib, rivojlanib boradi, deb hisoblaydi. Ilmiy bilish jarayonida induktiv xulosa chiqarishni deduktiv xulosa chiqarishdan ustun qo‘yadi. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Sensualizm]

[7] Йўлдошев Қ., Йўлдошева М. Бадиий матн асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – Б. 368.

boshqa obrazlar tasvirida, an'anaviy motivlarni talqin qilishda, hatto syujetdagi o'zgarishlarda ham namoyon bo'lgan[8]. Bularga "Zigfrid haqidagi qo'shiq", "Nibelunglar haqida qo'shiq" kabi nemis qahramonlik eposlari kiradi. Bu qo'shiqlarni ma'lum darajada qahramonlik-romantik doston xiliga qo'sha olamiz. Chunki ularda real, haqiqiy tarixiy voqelikni farqlash tobora qiyinlashadi. Bunday murakkab holatlarni hissiy talqin etish mumkin. Shu asosga ko'ra, O'rta asrlarga oid mazkur dostonlardagi qahramonning tuyg'ulari, hissiyotlari, ma'lum darajadagi iztiroblarini sentimentalizm elementlari sifatida qayd etamiz.

Sentimentalistlar elegiya, roman-maktub, sayohat kundaligi, xotiralar va boshqa janrlarda ijod qildilar. Bunday asarlarda badiiy voqelik birinchi shaxs tilidan bayon qilindi. Sentimentalist adiblar poetik tafakkur va tasavvurga g'ov bo'luvchi har qanday kanonlarga u qadar amal qilmas, o'z irodasiga, tuyg'ulariga ko'ra ish tutardi. Kompozitsiyada erkinlikka intilishar, lirik chekinishlarga ko'p o'rin ajratishardi. Klassitsizm tarafdori I.K. Gottshed nazariy qarashlari I.J.Bodler va I. J.Breytingerlar tomonidan keskin inkor etildi. Sentimentalistlarning ilk namoyandasi Fridrix Gotlib Klopstok edi. U O'rta asr nemis adabiy an'analari va sentimentalizm o'rtasida ko'prik qurishga intildi. Bu oqim lirik she'riyat va romanchilikdan dramaturgiyaga ko'chdi. Tuyg'ular tabiiy oqimini berish, qahramonlarni vaziyat talabiga ko'ra tasvirlash, ularga hamdard bo'lish, oddiy odamlarning boy ma'naviy dunyosini ko'rsatish sentimentalizm estetikasining yetakchi belgilariga aylandi.

Y.Gyote iste'dodli, sentimental kayfiyatdagi yosh yigitning lirik ifodalarga boy kundaliklari shaklidan foydalanishda bolalik yillaridayoq kuchli ta'sirlangan asari Jan-Jak Russoning "Yuliya yoki yangi Eloiza" romanining shakl va uslubiga ergashadi. Iffat, sevgi hamda vasvasa o'rtasidagi kurashda halok bo'luvchi qahramon taqdirini ifodalash, asarni epistolyar uslubga qurishda Russo izidan boradi. Maktublarni esa, o'z davrining milliy-mental muammolari, ma'rifiy g'oyalari bilan ziynatladi. E'tibor berilsa, Russo asarining qahramoni Sent-Pre hamda Y.Gyotening Verteri chuqur va sof tuyg'ular sohibi o'laroq bir nuqtada birlashadi.

Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" romani kompozitsiyasi real voqeliklar asosida qurilgan, ammo bu bilan qanoatlanmagan Gyote o'ziga xos botiniy ruhiy sayohat manzaralarini tasvirlaydi.

Roman qahramonlarining o'z-o'zini anglashi negizida ularning qaynoq hissiyotlari, intuitiv sezgilari, yurak amriga bo'ysunib impulsiv qarorlar qabul qilishga intilishlari, meditatsiya hamda ongosti tuyg'ulariga ergashishlari fikrimizni tasdiqlaydi. Ularni ko'ngil odamlari, ruh amriga bo'ysunuvchi nozik qalbli kishilar sifatida tasvirlaydi. Binobarin, o'z davrida Gyoteni tushunmaslik ratsional va irratsional fikrlovchi odamlar – bir butunlik qarama-qarshi qutbidagi ijodkorlar idroki va hissiy intellektlari, fikr-tuyg'ularidagi turfalikdan kelib chiqqan edi. Bizningcha, fikrlashning ratsional va irratsional turlari bir-birini to'ldiradi. Afsuski, bu hol XIX asr oxirlariga kelibgina neoromantiklar tomonidan

[8] Bu haqida qarang: Мелетинский Е. М. Немецкий героический эпос // История всемирной литературы: В 8 томах, Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. – Москва: Наука, 1983–1994. – С. 522–523.

anglab yetildi. “Yosh Verterning iztiroblari” romani sevgi va muhabbat, hijron va iztirob, umid va umidsizlik haqidagi hazin bir qo‘shiq sifatida kitobxon yuragini larzaga solishi idrok etildi.

Bobning *“Yosh Verterning iztiroblari” asarida Sharq va G‘arb poetik tafakkuri mushtarakligi”* deb nomlangan 2-faslida o‘rganilayotgan sentimental asarlarning ham Sharq, ham G‘arb adabiyoti, badiiy tafakkuri bilan mushtarak jihatlari haqida fikr yuritilgan. Jahon adabiyoti tarixida ro‘y bergan adabiy-estetik hodisalarni, dunyo adabiyoti klassiklari asarlari, o‘xshash obraz, motiv, xarakter, tip kabi badiiy asar unsurlarini Sharq va G‘arb badiiy tafakkuriga xos tipologik va individual jihatlarini qiyosiy o‘rganish adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy xulosalar berishi ilmiy asoslab berilgan.

Badiiy ijod, poetik tafakkur Sharq bilan G‘arbni mushtarak bog‘lab turgan umumadabiy, umuminsoniy munosabatlar mushtarakligiga asosiy vosita vazifasini bajarib kelgani bizga tarixdan ma’lum. Akademik Shuhrat Sirojiddinov: “Jahonning turli qutblari, xalqlari, madaniyatlari bir chorrahada mudom uchrashib, o‘zaro muloqot qilib turadilar, bu badiiy tafakkur chorrahasidir. Dunyo yo‘llarini karvonboshilar tutashtirganlaridek, badiiy tafakkur yo‘llarining ham o‘z karvonboshilari bo‘ladi. Bularsiz orzular ushalmaydi, xalqlar birlashmaydi, madaniyatlar uchrashmaydi” [9] , deya ta’kidlaydi.

Nemis mutafakkiri Yohann Volfgang Gyote ijodining Sharq va G‘arb poetik tafakkuri mushtarakligi kontekstida tadqiq qilish ham bugungi qiyosiy adabiyotshunoslik sohasida yangi tipologik o‘xshashliklarni aniqlash zaruratini ko‘rsatadi. Gyotening ijodida barcha xalqlar adabiyotidagi mavzular, obrazlar, motivlar, millatlar madaniyati, qadriyatlari, diniy bag‘rikenglik kabi holatlar birlashgan, umumlashgan holda kelishini kuzatamiz.

Gyotening Sharq adabiyoti, madaniyati, tafakkuri, qadriyatlariga qiziqishi yozgan asarlarida namoyon bo‘ladi. Muallifning “G‘arb-u Sharq devoni” asarida Firdavsiy, Rumiy, Anvariy, Sa’diy, Nizomiy, Hofiz, Jomiy, Navoiy kabi Sharq mutafakkirlari asarlariga murojaat qiladi. Gyotening bu munosabatlarida Sharqqa bo‘lgan muhabbati, qiziqishi yuqori ekanligi ko‘rinadi. Ayniqsa, Islom diniga, Muhammad (s.a.v.) shaxsiga ehtiromi, Sharq Islom tasavvufiga ishtiyoqi juda baland bo‘lgan. Gyoteshunos olmon olimasi Katarina Mommsenning yozishicha: “Gyotening islomiy tasavvurlar bilan aloqador bo‘lgan tabiatga nisbatan e’zoz-ehtiromi yana va yana namoyon bo‘ladi. Muhimi shundaki, shoir qahramonlarini o‘z nigohini tabiat hodisalarini turli tumanliklari osha, garchi bu hodisalarning o‘zi ilohiy bo‘lib ko‘rinsa ham, ularni yaratgan Yolg‘iz tangriga qaratishga intilayotgan holda tasvirlaydi”[10].

G‘arb adabiyotida iztirob hissi tasavvufdagi zot, tajalli va hol tushunchalarini badiiy talqin qilishga bag‘ishlangan asarlardan farqli o‘laroq, o‘zgacharoq talqin qilinadi. Jumladan: Gyote “Yosh Verterning iztiroblari” romani muxtasar “debocha”sida: “*Sho‘rlik Verterning kechinmalariga oid nima*

[9] Сирожиддинов Ш. Башарий тафаккурнинг икки чўққиси: Навоий ва Гёте. // “Sharq-u G‘arb: Navoiy va Gyote” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 4.
[10] Моммсен К. Гёте ва Ислом. Жаҳон адабиёти журнали, 2012. – № 1. – Б. 134.

topishga erishgan bo‘lsam, avaylab to‘pladim va buni Sizga manzur eta olsam, mendan minnatdor bo‘larsiz, deb ishonaman. Siz uning zukko qalbi oldida hurmat va ehtirom bilan bosh egarsiz hamda qismatiga achchiq ko‘z yoshi to‘karsiz.

Xuddi shunday ko‘rgilikka duchor bo‘lgan inson, uning iztiroblaridan sen ham panoh top. Agarda o‘z aybing yoki taqdir hukmi bilan o‘zingga yaqinroq do‘st topa olmasang, mayli, shu kitobcha senga hamroh bo‘la qolsin”[11], deb yozadi. Agar e’tibor berilsa, Gyote roman qahramoni qismatiga o‘zining achinish hissini yashirmay “sho‘rlik” deb ta’kidlayapti. Shuningdek, u Verter obrazi “zukko qalbi” va “kechinmalari”ga e’tiborimizni jalb qilib, unga nisbatan, nafaqat hurmat, balki ehtiromli munosabat ko‘rsatilishi, achchiq qismati kitobxonda hamdardlik uyg‘otishiga umid bog‘lamoqda.

Verter jamiyatdagi mavjud ijtimoiy tuzum, qat’iy qonunlar insondagi tabiiy instinktlarni o‘ldirishini, insonni tabiiy go‘zalliklardan ajratishini ta’kidlaydi: “*Faqat tabiatgina boy va faqat ugina buyuk san’atkor yarata oladi... qat’iy qonun-qoidalar tabiatni his etib, uni haqqoniy tasvirlash qobiliyatini so‘ndiradi*” [12] . Har qanday qat’iy qoida, ijtimoiy qonun, byurokratizm odamlardagi tabiiy hislarni yo‘q qilishidan asar qahramoni xavotirga tushadi. Butun borliqni, tabiatni hissiy idrok etadigan, o‘z tuyg‘ulari orqali o‘zini ezoterik olam bilan, tabiatning sirli ohanrabosi bilan bog‘laydigan, o‘zini tabiat bilan bir butun tasavvur qiladigan sentimental odamlar o‘z tabiatiga ko‘ra qarshi bo‘lgan byurokratik jamiyat qonunlariga amal qilib yashay olmaydi. U aynan sentimental kishi ixtiyori, iznidan tashqaridagi xarakterdir.

Sentimental kishi tabiatiga xos bunday xarakter o‘zbek adibi Abduqayum Yo‘ldoshevning “Sunbulaning ilk shanbasi” asari qahramoni tilidan ham yangraydi: *“Ro‘zg‘or, qorin, ust-bosh, buyum tashvishi degan tuzoqlarga o‘ralashib qolib, so‘nggi yillar ichida o‘ylagan o‘ylarimning to‘qson foizi hisob-kitob, pul topish, narsa olish kabi arzimas tashvishlar bilan bog‘liq bo‘lib qolganini tushunib, endi bu girdobdan orqaga, orzu-umidlar, turli xayollar sohiliga qaytib chiqa olmasligimni anglaganim mahal yuragimni o‘tkir tirnoqlari bilan ayovsiz timdalovchi o‘kinch, armon, g‘azab, chorasizlik balolaridan qutulolmay jizg‘anagim chiqib yurgan kezlarim, hamxonamning o‘z erkini butkul hissiyotlar hukmiga topshirib qo‘yadigan bir oy-qirq kunlik telbavor hayot tarzini ma’qullaydigan ham bo‘lardim*”[13].

Anglashiladiki, ijtimoiy tengsizlik, maishiy turmush tashvishlaridan yuksala olmayotgan odamlar ayanchli qismatiga achinish romanning asosiy g‘oyaviy liniyalardan birini tashkil qiladi. Asar parchasida real dunyo tashvishlari bilan xayolot olami orasida depsinib qolgan kishi, hayotning tabiiy go‘zalliklaridan estetik zavq ololmasdan, turmush tashvishlariga o‘ralashib qolganidan nadomat qiladi, iztirobga tushadi. Hayotda o‘z tuyg‘ulari, ehtirosli muhabbati, sog‘inchi, iztirobi bilan yashagan oshiq yigit (hamxona) holati Verterning sevgi iztirobiga o‘xshaydi. Bu oshiq yigit ham Verter kabi o‘z noaniq istaklari va mavhum

[11] Гёте Й.В. Ёш Вертернинг изтироблари: роман / немис тилидан Янглиш Эгамова таржимаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2018. – Б. 3.
[12] Shu manba. – B.14.
[13] Йўлдошев А. Сунбуланинг илк шанбаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – Б. 264.

xayollariga g‘arq bo‘lib, shu *o‘zi kashf qilgan* g‘aroyib dunyoda yashashni istaydi, yashaydi. U yashaydigan badiiy makon ezoterik olamdir.

Ezoterik olam to‘g‘risida adabiyotshunos U.Jo‘raqulov quyidagilarni aytadi: “Ezoterika tushunchasi insoniyat barpo etgan turli madaniyat sathlarida turlicha qabul etib kelinganiga qaramasdan, ularni zohiriy jihatdan tutashtiruvchi bitta nuqta mavjud: ezoterika – har kim egallashi mumkin bo‘lmagan, ratsional mantiq, real tajribaga oid bilimlar vositasida anglashilmaydigan sirli mohiyat, zamonning to‘rtinchi o‘lchami va oltinchi sezgi potensialini talab etadigan hodisa. Botiniy yoki inson ruhoniy dunyosi nuqtayi nazaridan esa individual shaxs istaklari, qiziqishlari, ishtiyoqi, harakati va mehnat-riyozatiga bog‘liq bo‘lmagan, substansional maydonda inson ishtirokisiz yoki matritsa sathida hal etilib, tanlov asosida beriladigan fenomenal butunlikdir”[14]. Olimning fikricha, ezoterikani aql tarozisi, ratsional mantiq bilan anglab bo‘lmaydi. Bu tamomila aqldan tashqaridagi, irratsional qatlamda tajassum bo‘ladi. Bu olam ilmini, mo‘jizalarini bilish faqatgina Alloh tuhfa etgan iste’dod orqaligina amalga oshadi. “Ezoterik tafakkur jahon adabiyoti tarixining o‘ta iste’dodli vakillari, Alloh tomonidan tanlangan vakillarigagina xosdir. Faqat tanlangan shoir, yozuvchi, dramaturglargina ezoterik voqelikni yuksak maqomga olib chiqa oladilar. Shu tariqa butun boshli davrlar, millatlar adabiyotining yetakchisiga aylanadilar”[15].

Demak, Verter va A.Yo‘ldosh qahramonining sevgi “tarixi” ham aql-mulohazaga emas, balki tizgin bilmas tabiiy tuyg‘ularga asoslanadi. Bu sentimental qahramonlar faqat chegara vaziyat (ekstremal holatlar), his-tuyg‘ularning portlashini boshdan kechirishga qodirligini tushunadi. Shuning uchun ham roman Verterning o‘z aybiga iqror bo‘lishi bilan ochiladi. Verter va A.Yo‘ldoshning qahramoni, ularning muhabbati kitobxonni inson tabiati, qalbi haqidagi ma’yus o‘ylarga toldiradi. Ularning qayg‘ulari dunyo ijtimoiy-siyosiy manzarasi haqidagi Russo falsafasiga xos motivlardan oziqlanadi.

Dissertatsiyaning so‘nggi bobi **“Hozirgi o‘zbek adabiyotida sentimental nasr va uning poetik xususiyatlari”** deb nomlanadi. Birinchi fasl *“O‘.Umarbekov nasrida sentimentalizm an’analari”* masalasini qiyosiy kontekstda o‘rganishga qaratilgan.

Biz yuqoridagi boblarda ta’kidlaganimiz singari, jahon adabiyot maydonida keng yoyilgan sentimentalizm oqimidan o‘zbek adabiyoti ham bir chetda qolmagan. Ayniqsa, so‘nggi davr milliy adabiyotimizda sentimentalizm elementlari yaqqol ko‘zga tashlanadigan asarlar, ayni janr xususiyatlarini o‘zida to‘liq aks ettiradigan sentimental qissalar vujudga keldi. O‘zbek sentimental nasrining shakllanish omillari bir qancha madaniy, ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik jarayonlar bilan bog‘liq: *birinchidan*, milliy, madaniy va tarixiy sharoitlar; *ikkinchidan*, Sharq adabiy an’analari; *uchinchidan*, G‘arb adabiyotining ta’siri; *to‘rtinchidan*, taraqqiyparvar g‘oyalarning yoyilishi; *beshinchidan*, sovet davri va undan keyingi davr yozuvchilari ijodiyoti o‘zbek sentimental nasrini shakllanish bosqichlarini belgilab berdi.

---

[14] Жўракулов У. Эзотерик тафаккур универсалияси: Навоий, Шекспир, Гёте. // “Sharq-u G‘arb: Navoiy va Gyote” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023. – Б. 9.

[15] Shu manba. – B. 28.

Sentimentalizmning asosiy xususiyatlari – emotsional ifodalar, tabiiy muhitga bo‘lgan mehr, insonni tabiiy va sodda holatda tasvirlash – O‘lmas Umarbekovning “Sevgim-sevgilim” asarida aniq namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida inson ruhiyatining nozik qatlamlari, ma’naviy izlanishlari va atrof-muhit bilan uyg‘unligi asosiy e’tibor markazida bo‘ladi. Shu bilan birga, u o‘zining personajlarini ko‘pincha o‘z qalbini izlash, his-tuyg‘ularini anglash va hayot haqiqatini tushunishga intilishlari bilan tasvirlaydi. Sentimental xarakterga ega “Sevgim-sevgilim” asarida O‘.Umarbekov, tabiiy go‘zallikni, insonning ichki dunyosini va uning ma’naviy izlanishlarini chuqur tahlil qilib, o‘quvchini o‘z his-tuyg‘ulariga bog‘lanishga undaydi.

Akademik Sobir Mirvaliyev ta’kidlashicha, “Asar qahramoni O‘ktamning ana shu ichki tug‘yonidan chiqqan so‘zlar hayot haqidagi, sevgi haqidagi faqat uning xulosalarigina emas, balki yozuvchi olg‘a surgan g‘oyaning qahramon orqali ifodalashi hamdir. Qissadan hissa shuki, yozuvchi endi faqat baxtli sevishganlar taqdirini emas, fojiaviy taqdirlar haqida hikoya qilish orqali ham iymon, ishonch, sadoqat, burch, vijdon, mas’uliyat degan noyob tuyg‘ularni omon saqlab qolishni ko‘zda tutadi. Shunday bo‘lsa, inson baxtli, jamiyat va oila mustahkam bo‘ladi... O‘lmas Umarbekovning yozuvchi sifatida hayotni tasvirlashda, hayot haqiqatidan badiiy haqiqatga o‘tishda bir ijobiy prinsip darajasiga ham ko‘tariladi, desak xato bo‘lmas.”[16]

O‘.Umarbekov asarlarining badiiy va psixologik tasvir jihatlari o‘zbek sentimental nasriga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Shuningdek, sho‘ro davrida yashab, ayni hukumat siyosatini shu yo‘sinda tanqid qilish, inson qalbining sofligini, insoniy qadriyatlarning ulug‘ligini badiiy tasvirlash orqali O‘lmas Umarbekov milliy adabiyotda o‘z o‘rnini topgan va o‘ziga xos uslubini yarata olgan yozuvchidir.

O‘.Umarbekovning “Sevgim-sevgilim” qissasi muhabbat mavzusida bitilgan eng yaxshi asarlar jumlasiga kiradi. Qissa bosh qahramoni O‘ktam endigina institutni bitirib, yosh agronom sifatida uzoq qishloqlardan biriga ishga yuborilgan. U yerda o‘sha jamoa raisi Usmon akaning qizi Oypopuk bilan tanishib, chin ishq-muhabbat izhoridan mast bo‘ladi. Qissa quyidagi samimiy, haroratli satrlar bilan boshlanadi: “*Yoshlik endigina qanot chiqargan uchirma qushga o‘xshaydi. Hech narsadan tap tortmaydi, hech narsadan cho‘chimaydi. Butun borliq unga yangicha, sirli bo‘lib tuyuladi. Hamma narsani ko‘rgisi, bilgisi, hamma narsada o‘zidan qandaydir iz qoldirgisi keladi. Lekin bu izning qanday bo‘lishini, unga sevinch baxsh etadimi, yo g‘am keltiradimi, to‘g‘rirog‘i, bilishni istamaydi. Agar shu istak unda hamma narsadan kuchli bo‘lganda edi, o‘zini bunchalik tutmasmidi?! Kim biladi, balki men xato qilayotgandirman. Rostini aytganda, buning hozir mendan boshqa hech kimga ahamiyati yo‘q. Biroq men o‘zimni uchirma qushdek his qilib, o‘sha paytlar notanish joylarga ketib qolganimdan sira afsuslanmayman*.”[17]

---

[16] Мирвалиев С. Истеъдоднинг қўш қаноти: Ёзувчи Ўлмас Умарбеков ижодига бир назар. – Тошкент: Ёзувчи, 1993. – Б. 30.

[17] Умарбеков Ў. Севгим-севгилим. / Энг сара муҳаббат қиссалари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – Б. 5.

Asar qahramoni butun hayot haqiqatini, eng muqaddas tuyg‘ularni aynan shu Yakkachinor qishlog‘ida, undagi odamlardan, so‘lim tabiatdan, ayniqsa, butun hayotining mazmuniga aylangan Oypopuk bilan o‘rtasidagi o‘tli muhabbatdan, muhabbatning iztirobidan angladi. O‘ktamda uyg‘ongan bunday samimiyat, tabiiy fazilat faqat va faqat muhabbat, hissiyot, tuyg‘ular orqali kechdi. O‘lmas Umarbekovning “Sevgim-sevgilim” qissasida, asosan, insonlardagi tabiiy tuyg‘ular junbishga keladi. Bu to‘lg‘oq misol keladi, u bir makonda yashab turgan insonni teskari qutbga o‘tkazib yuboradi. Shaharda o‘sib-ulg‘aygan, shahar ta’limini, tarbiyasini olgan O‘ktam taqdir taqozosiga ko‘ra olis Yakkachinor qishlog‘iga yuboriladi. Shahardan chiqib, viloyat, tuman, qishloqlarni – so‘lim tabiatni tomosha qiladi, kuzatadi, tafakkur qiladi. Sehrli Yakkachinor qishlog‘i, undagi idilliya, odamlar turmush-tarzini ko‘rib, uning ko‘nglida ajib hislar uyg‘onadi: “*Men ko‘p tonglarni ana shunday daryo yonida o‘tkazganman. Quyoshning oltin nurlariga cho‘milgan daraxtlar, kumush jilg‘alarga tikilib, cho‘pon nayining sirli sadolariga quloq solganman. Zarafshonning beshik-beshik to‘lqinlanib, sekin oqishi meni maftun qilardi*.”[18]

Tabiat insonning tuyg‘ularini, tabiiy sezgilarini uyg‘otadigan, dunyo tashvishlarini bir fursat unutib, uni o‘zga olamga olib boradigan muhim vositadir. Shu bilan birga, bu parchada sentimental asarlarga xos eng asosiy xususiyat ham aynan tabiat bilan insonning uyg‘unligi, bir butunligi aks etyapti. Qissa qahramonining Yakkachinordagi hayoti, asosan, tabiat bilan hamnafas o‘tdi, sevgilisi Oypopuk bilan ham ularning uchrashuvi doim tabiat qo‘ynida, daryo bo‘yida kechadi.

Adabiyotshunos Umida Rasulova ta’kidlaganidek, “qissada inson tuyg‘ularining tabiat hodisalariga parallel yoki kontrast keltirilishi vositasida borliqdagi yaratiqlar aro qat’iy muvozanatni idrok aylash imkoni yuzaga keladi. Adiblar ayni shu muvozanatni me’yorlashtirish, oqilona hamda odilona yo‘l tutish maqsadida ongli insonga tabiat bilan hamnafas, bir butunlikni yodda saqlashni singdirib borayotgani ayonlashadi.” [19] Aslida inson sezgilari tabiiy bo‘ladi, u tabiiy ravishda kishi qalbida, shuurida makon topadi. Uni biror tabiiy tashqi omil harakatga keltiradi, zamonaviy shaharsozlik, sivilizatsiya, texnikalashuv insonlardagi bu tabiiy tuyg‘ularni bo‘g‘adi, qadriyatlarni o‘ldiradi, degan falsafiy qarash sentimentalistlarning asosiy konsepsiyasi hisoblanadi. Inson faqat hissiyot, tuyg‘ular orqali tabiat bilan sirli rishta bog‘laydi, hissiy aloqada bo‘ladi va o‘zini uning bir parchasi deb hisoblaydi.

Y.V.Gyotening sevimli qahramoni Verter ham o‘zini tabiatning oshig‘i, uning bir bo‘lagi deb hisoblaydi. O‘zini tabiatdan ayricha tasavvur eta olmaydi. Gyotening bu yondashuvi Sharq Islom tasavvuf ta’limoti bilan bog‘lanadi. Roman matnida ayni holat ifodalangan shunday parcha keladi: “*Bu o‘lkada aldamchi ruhlar hukmronmi yoki butun borliqni ko‘zimga bamisoli jannat qilib ko‘rsatayotgan havoyi hissiyotlar qalbimni egallab olganmi, bilmayman.*

[18] Умарбеков Ў. Севгим-севгилим. / Энг сара муҳаббат қиссалари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – Б. 10.
[19] Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). – Тошкент: Qamar, 2020. – Б. 210.

Shundoqqina shahar chetida bir buloq bor, bu buloqqa men xuddi Meluzina[20] *va uning singillari singari bog‘lanib qolganman. Kichik tepalikdan quyiroqqa tushsang, yigirmatacha zinapoya seni chuqur g‘orga boshlab keladi. U yerdagi marmar qoyada zilol chashma qaynaydi. Bu joyni yuqoridan o‘rab turgan pastakkina devor, ko‘kka bo‘y cho‘zgan ulkan daraxtlar, salqin havo – bularning barchasida allaqanday jozibador va sirli kuch bor! Har kuni soatlab shu yerda o‘tiraman*.”[21] Verter odamlarning tor fikrligidan, turmushdagi bir xilliklardan bezib, qalbi sevgidan iztirobga to‘lib ketgan asosiy paytlarini shahardan uzoq, ovloq joylarda, yuqoridagi matnda tasvirlangani singari tabiat qo‘ynida o‘tkazadi. Shu kezlarda o‘zini tabiat bilan hamnafas sezadi. Butun qalbi bilan o‘zini tabiatga tegishli deb biladi va u bilan hissiy bog‘lanadi, hissiy muloqot qiladi. Verter tabiat bilan muloqotdan quvonch topadi, baxtni his qiladi. Masalan, asar qahramonining suyuklisi Lotta ham roman sahifalarida “tabiat farzandi” sifatida taqdim etilgan.

Asardan keltirilgan parchalarda hayotning turmush tashvishlariga o‘ralashib qolgan insonga tabiatni kontrast qo‘yadi. Muhabbatdan azoblanayotgan qalblar iztirobiga malham sifatida ham tabiatni ko‘rsatadi. Dard-alamini to‘kib soladi, yig‘isini izhor etadi, taskinni tabiatdan topadi. Verter tilidan aytilgan “*kichik tepalikdan quyiroqqa tushsang, yigirmatacha zinapoya seni chuqur g‘orga boshlab keladi”* deyilgan parchada badiiy parallelizm hodisasi kuzatiladi. Sentimental qahramon yurayotgan yo‘l ratsional kishi uchun o‘ta xavfli yo‘l hisoblanadi, bu yo‘l yo‘qlik (g‘or) sari yetaklaydi. Tepalikdan pastga tushib g‘orga tomon borishi Verterning roman syujetidagi bosib o‘tadigan yo‘lidir. Muallif buni badiiy parallelizm yo‘li bilan metaforik sathda tasvirlaydi. O‘.Umarbekov qahramoni tilidan aytilgan “*Samarqanddan cho‘zilib kelgan bu yo‘l shu yerda tog‘ga tutashib yo‘qolib ketadi*” jumlada ham yuqoridagi badiiy parallelizm talqinini berish mumkin.

O‘lmas Umarbekov va Gyotening asarlari tipologik jihatdan tahlil qilinganda ikki asarda, ayrim o‘rinlarda A.Yo‘ldosh asarida ham sentimentallikka xos ko‘plab elementlar mushtarak holatda kelganligi kuzatildi. Jumladan, sentimentallikka xos safar, tush, ilk uchrashuv motivlari, maktublar, yolg‘izlik, iztirob, yig‘i, arzihol, o‘zga olam istagi kabi unsurlarni o‘z o‘rnida tipologik tahlil qilganmiz. Bu tahlillarga dissertasiyamizning tegishli fasllarida batafsil to‘xtalib o‘tilgan.

Uchinchi bobning 2-fasli *“A.Yo‘ldoshevning “Sunbulaning ilk shanbasi” qissasi sentimental nasr namunasi sifatida”* deb nomlanib, asardagi sentimental holatlar tahliliga bag‘ishlangan.

Bugungi o‘zbek nasri ijodkorning yuksak badiiy tafakkuri, romantik ideali, original hayot lavhalarini ifodalashdagi mahorati natijasida yaratilgan qissalarga boy. Yozuvchilarimizning mukammal badiiy izlanishlari tufayli zamonaviy o‘zbek qissachiligi tadrijida syujetga boy voqealar tasvirlangan asarlar yaratilmoqda. Iste’dodli yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshev ana shunday

[20] Meluzina – farang afsonasidagi yarim ayol, yarim baliq shaklidagi suv parisi (*Tarjimon Yanglish Egamova izohi*).
[21] Гёте И.В. Ёш Вертернинг изтироблари: роман. Немис тилидан Я.Эгамова таржимаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2018. – Б. 6–7.

ijodkorlardan biridir. Adibning “Sunbulaning ilk shanbasi” qissasi syujet va kompozitsion jihatidan o‘ziga xos asardir.

A.Yo‘ldoshev “Sunbulaning ilk shanbasi” asarini sentimental qissa deb ataydi. Insoniy his-tuyg‘ular, shaxsiy kechinmalar va axloqiy qadriyatlarni aks ettirishga urg‘u beradigan sentimentalizm A.Yo‘ldoshevning mazkur asarida insonning ichki dunyosini ochib beruvchi chuqur mulohazalar va hissiy manzaralarda o‘z ifodasini topgan. Sentimentallik xususiyatlari asarning asosiy uslubiy va badiiy jihatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu sentimentallik asarda quyidagi jihatlarda o‘z aksini topgan:

1. Qahramonlarning ichki dunyosi tasviri, yig‘i, alam, iztirob holatlari.
2. Tabiat va inson tuyg‘ularining mushtarakligi.
3. Asar tilining hissiyotlarga boyligi.
4. Asarda epistolyar uslub yetakchiligi.

Bu xususiyatlar “Sunbulaning ilk shanbasi” asarini nafaqat hissiy jihatdan boy, balki mazmunan ham chuqur badiiy asar sifatida qabul qilishga imkon yaratadi va muallifning sentimental qissa deyishiga asos beradi.

Professor Bahodir Karimov ta’kidlashicha: “Sunbulaning ilk shanbasi”da afsus-nadomat, ilinj va umid, g‘am va shodlik, yonma-yon; unda ichki bir tavba-tazarru, ochilmay qolgan g‘unchalar ifori, orzulari kunpayakun bo‘lgan yigitning dardi-alami, sir-asrori bor. Zotan, bu keyingi omil – yigit va qiz orasidagi kechmish bir oz pardalanishi ham o‘quvchini fikrlashga undaydi.”[22]

“Sunbulaning ilk shanbasi” qissasi g‘ayrioddiy, tushunib bo‘lmas hissiy holatlar, o‘z dardini maktublarda ifodalash kabi jihatlar bilan sentimental ruhda yozilgan. Asarda muallif tomonidan sentimental qahramon sifatida taqdim etilayotgan yigit (hamxona) sevgisi uchun kurashmaydigan, o‘zini iztiroblar ummoniga otgan, boshqalarga “dovdir” bo‘lib tuyuladigan pessimist, yig‘loqi obrazdir. Uning bu tabiati mohiyat e’tibori bilan sentimentallikka daxldor. Asarda shunday parcha keladi: “– *Izmjon... Izmjon... – Bu g‘alati ismdan mador olayotganday pichirlab takrorlashni qo‘ymayotgan hamxonam tuyqusdan menga bir zum lol bo‘lib termilib qoldi-yu, birdan... “Bu o‘sha! O‘sha!” deb hansirab, titrab, to‘liqib, iljayishga urinarkan, lablari qiyshayib ketdi-yu, yana “O‘sha” degancha ho‘ngrab yig‘lab yubordi*.”[23] Barcha sentimental qahramonlarga xos bu yig‘i uning nokurashchanligi, ojizligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pastligini bildiradi. Biz avvalgi nazariy boblarda ojizlikda qolgan qahramonlar yig‘isiga to‘xtalgan edik. Bunday yig‘i tadqiqotimiz tahlil obyektlari bo‘lgan “Yosh Verterning iztiroblari”, “Sevgim-sevgilim” asarlari qahramonlarida ham kuzatiladi.

A.Yo‘ldoshev ijodidagi sentimental unsurlar inson qalbining nozikliklari va hayotiy voqealar ta’siridagi psixologik o‘zgarishlarni ko‘rsatish bilan alohida ajralib turadi. Shu bilan birga, adib o‘z asarida an’anaviy sentimentalizm elementlarini mahalliy o‘ziga xoslik bilan uyg‘unlashtirgan holda, o‘ziga mos milliy ruhiyatni ham namoyon qilgan. Masalan, an’anaviy sentimental asarlarga

[22] Карим Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2018. – Б. 25.
[23] Йўлдош А. Сунбуланинг илк шанбаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – Б. 295.

xos eng muhim jihat epistolyar uslubdir. A.Yo‘ldoshevning “Sunbulaning ilk shanbasi” qissasida maktub faol ifoda uslubi hisoblanmaydi. Bu asarda maktubdan “Yosh Verterning iztiroblari” romanida qo‘llanilganchalik uslubiy foydalanilmagan. Ammo A.Yo‘ldoshev qahramoni ham sevgi iztirobi, dardi bitilgan ko‘plab maktublar yozgan, lekin ular deyarli jo‘natilmagan. Boshqa sentimental asarlarida sevgi iztirobidan yonayotgan oshiq o‘zining arzihollarini, izhorlarini maktublarda bitib, dardini doston qilsa, A.Yo‘ldoshev qahramoni yozgan maktublar sirli sevgi tarixini ochiqlamaslik, sirliligicha qolishi uchun muhim poetik vazifa bajaradi.

Abduqayum Yo‘ldosh “Sunbulaning ilk shanbasi” asarida sentimentallikni, ya’ni kuchli hissiyotni, sevgi va ayriliqni chuqur tasvirlashda o‘zining betakror uslubini namoyon etadi. Ushbu asarda sevgi – inson qalbining eng nozik his-tuyg‘ularini ifodalaydigan va hayot mazmunini eng muhim masalalaridan biri sifatida ko‘rsatilgan. Sevgi va ayriliqning har bir nuqtasi o‘quvchida chuqur hissiyotlarni uyg‘otadi, chunki muallif ularni inson ruhining eng aziz va shaxsiy tajribalari sifatida tasvirlaydi. Asarda ayriliq – faqat ikki kishining bir-biridan jismonan ajralishi emas, balki ularning qalbidagi bo‘shliq, yo‘qotish va iztirobni ifodalovchi chuqur ruhiy jarohat sifatida ko‘rsatiladi.

Akademik Matyoqub Qo‘shjonovning: “Ijobiy qahramon obrazlarini yaratib go‘zallikni ulug‘lash adabiyot va san’atda qay darajada muhim o‘rin tutsa, fojiaviylik holatlarini tasvirlash orqali go‘zallikni ulug‘lash ham shu darajada muhimdir” [24] , deb aytadi. Umuman olganda, Gyote, O‘.Umarbekov, A.Yo‘ldoshev sentimental qahramonlarining sevgi-iztirobi, fojiali qismati insonlarda achinish, hamdardlik hissini uyg‘otib, adabiyotda go‘zallik ulashish singari estetik vazifa bajaradi.

XULOSA

1. Sentimentalizm jamiyatdagi tengsizliklarga qarshi ijtimoiy fikrni bildiradi. Sovuq aqliy mushohadaga zid ravishda inson ichki dunyosi va hissiyotlarini yuqori planga olib chiqadi. Oddiy xalq hayotini, ularning qiziqishlari, sevgi-muhabbati, qayg‘u-iztiroblarini badiiy tasvirlaydi. Sentimental asar qahramoni oddiy xalq ichidan chiqqan, ko‘proq qishloq aholisiga mansub, o‘z hissiyotlarini sovuq intellekt qobig‘iga o‘ramay, ochiq-oydin ko‘rsatishdan qo‘rqmaydigan, oqko‘ngil, sofdil, qalbi bilan sevadigan kishi. Sentimental asar syujeti ko‘proq yo‘l xotiralari va taassurotlari, maktublar, sevgi-muhabbatning toza hissiy talqinlari asosiga quriladi.

2. Mohiyat mazmunidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, sentimentalizm adabiy oqim, faqatgina estetik-badiiy hodisa deb qarash to‘g‘ri emas. Bu oqimning ildizlari qadim adabiyotdan boshlanib, XVIII asrdan e’tiboran rasmiy tus olgan. Sentimentalizmning sof ijtimoiy va falsafiy asoslari ham mavjud. Bundayin asos sentimentalizm falsafasining jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalar, shahar va qishloq, rivojlangan fan-texnika, obyektivist va subyektivist, optimist va pessimist odamlarni o‘zaro solishtirishi, ularni ijtimoiy hayot voqeligi ichida tasvirlashi,

[24] Қўшжонов М. Адабий-танқидий мақолалар, эсселар, хотиралар. – Тошкент: Sharq, 2018. – Б. 314.

badiiy obraz sifatida tabiiy, asl hissiy-emotsional xususiyatlariga urg‘u berishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu hodisa regional hodisa bo‘lmay, Sharq va G‘arbning barcha xalqlariga tegishli.

3. Sharq va G‘arb sentimental nasri namunalari qiyosiy tipologiyaga oid tahlil va talqinlar asosida o‘rganilar ekan, dunyo adabiyotshunosligida kishilik jamiyatida badiiy adabiyotning paydo bo‘lish omillari, adabiy tur va janrlar genezisi, tarjimashunoslik masalalari bilan mushtarak holda muammo mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Y.V.Gyote mansub G‘arb adabiy-badiiy tafakkuri bir emas, bir nechta tarixiy-adabiy manbalardan suv ichadi. O‘zbek adabiy muhiti vakillari O‘.Umarbekov va A.Yo‘ldoshevlar ijodi ham G‘arb va rus adabiyoti ta’siridan xoli bo‘lmaganidek, sharq-o‘zbek mumtoz adabiyoti, jadid nasri, sovet davri o‘zbek nasri an’analari doirasida o‘zini namoyon etadi.

4. Sentimentallik va sentimental adabiyot an’ana va mezonlari Sharq va G‘arb adabiyoti muhitida o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lishidan qat’i nazar o‘zaro ichki mushtaraklikka ega. Bu kabi tipologik o‘xshashliklarning maydonga kelishi esa: a) madaniy, ijtimoiy, siyosiy, genetik aloqalar; b) inson omilining markazda tasvirlanishi; d) adabiy ta’sir va adabiyotdagi poetik tamoyillarning mushtarakligi; e) tabiiy, geografik, psixologik shart-sharoitlar yaqinligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

5. Nemis adabiyoti tarixidagi sentimentalizm elementlarini mavjud manbalar ilmiy nazardan o‘tkazilganda sentimentallikning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilar ma’lum bo‘ldi: a) klassitsizmning qat’iy qoidalaridan chekinish; b) insonga bo‘lgan subyektiv yondashuv, uni irratsional talqin qilish; d) odamni olam, tabiat bilan uyg‘un holda bir butun tasvirlash; e) insondagi buyuk g‘oyalar va tafakkur kengliklari tasvirlari; f) poetik ifoda jarayonida inson his-tuyg‘usi va kechinma rolining ortishi; g) oshiq-ma’shuqlarni shaharning shovqinli, dimiqqan havosi emas, balki ona tabiat quchog‘ida tasvirlash; h) pokiza muhabbat va axloq masalalarini asosiy estetik kategoriya sifatida belgilash; i) qahramonlarni oddiy odamlardan tanlash va ularning ma’naviy go‘zal dunyosini tasvirlash; j) muhabbati rad etilgan oshiqning ko‘ngil kechinmalarini pafos bilan tasvirlash.

6. Qadimgi dunyo adabiyoti, nemis xalq qo‘shiqlari, elegiyalar, nemis qahramonlik dostonlari, nemis klassik poeziyasi, maktublar, sayohat kundaliklari, Yevropa xalqlari adabiyotida shakllangan sentimental nasr namunalari, yevropalik yozuvchilarning estetik qarashlari, Sharq xalqlari doston, ertak, mumtoz adabiyot manbalari ta’sirida sentimentalizmning nemis adabiyotida tarixiy-tadrijiy shakllangani ayonlashdi.

7. “Yosh Verterning iztiroblari” sentimental romani yuzaga kelishida muallifga aloqador real hayotiy voqea sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, asosiy Gyotening yoshligida qiynagan iztiroblar, kechinmalar, sog‘inch, azob, inson tuyg‘ulari junbishga kelishi kabi unsurlar bilan jamiyatdagi reaksion kuchlarga zarba sifatida yozilgan. Romanda inson ruhiyatining sezgirlik va xayolparastlik xossalari qamrab olingan. Bunday kayfiyatdagi inson barcha tashqi taassurotlarni intellekt bilan baholamaydi. Sentimental qahramonlar hissiyot va ehtiroslarga beriluvchan, umidsizlik va yolg‘izlik tufayli g‘ayrati, yashashga qiziqishi

so‘ngan, pessimistik kayfiyatdagi nokurashchan xarakterga xosdir. Gyote, O‘.Umarbekov, A.Yo‘ldoshev qahramonlari ham shu nuqtalarda birlashadi.

8. Gyotening romanida tasvirlangan voqealar, xronotoplar, obrazlar, epizodlar, xarakterlar, ifoda uslubi va yondashuviga ko‘ra Sharq Islom madaniyati bilan, sharqona ma’naviy tafakkur bilan bog‘lanadi. Bu omil “Yosh Verterning iztiroblari” romani Sharq badiiy tafakkuri kontekstida tadqiq qilish imkonini beradi.

9. “Yosh Verterning iztiroblari”, “Sevgim-sevgilim”, “Sunbulaning ilk shanbasi” asarlarida qahramonning ruhiy kechinmalari, hayotga yondashuvlari, hissiyot va tuyg‘ulari, sof sevgisi, rad etilgan muhabbati, sevgi tarixi; asarlardagi uchrashuv, tush, ayriliq, afsuslanish motivlari, xronotoplar, maktub, dil izhorlari, arzihol, yig‘i va nihoyat fojiali qismat kabi mezonlarga ko‘ra bu uch asar tipologik o‘xshashdir.

10. O‘lmas Umarbekov asarlari o‘zining ifoda usuli, pokiza tuyg‘ularning tarannum etilishi, mazmuniy-g‘oyaviy jihatdan adabiyotda va san’atda go‘zallik, ezgulik ulashishi bilan o‘zbek adabiyoti uchun qadrlidir. O‘.Umarbekovning “Sevgim-sevgilim” qissasi va Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” romani tipologik jihatdan tahlil qilinganda har ikki asarda, sentimentallikka xos ko‘plab elementlar mushtarak holatda kelganini kuzatamiz. Jumladan, safar, tush ko‘rish, bir ko‘rishda sevib qolish motivlari, maktublar, yolg‘izlik, iztirob, yig‘i, arzihol, o‘zga olam istagi kabi unsurlarga ko‘ra sentimental asarlar hisoblanadi.

11. “Sevgim-sevgilim” qissasi va “Yosh Verterning iztiroblari” romani qahramonlarining uchrashuv motivi qiyoslanganda quyidagi tipologik o‘xshashliklar aniqlandi: a) tuyg‘ulari musaffo ikki oshiq-ma’shuqlarning ilk tanishuv, ilk uchrashuv joylari ham xronotop o‘laroq bir badiiy makonda sodir bo‘ladi; b) har ikki asardagi qizlarning bazmda tushgan raqsi ham o‘z milliy madaniyat, mentalitetidan kelib chiqadi. Oypopuk “Tanovar”ga, Lotta esa nemischa valsga tushadi; d) raqsga tushayotgan qizlarning nozik xatti-harakatlari, jozibador nigohi, xushmuomalaligi har ikki oshiq yigitni birdek maftun qiladi; e) bazmdagi uchrashuvdan so‘ng yigitlarning kayfiyati ham uyg‘un ko‘rinadi. Ya’ni Verterning ham, O‘ktamning ham qalbida ehtirosli muhabbat paydo bo‘ladi, tabiiy, pokiza tuyg‘ulari harakatga tushadi, ammo har ikkisi ham bu bezovtalikdan taskin topadi. Bu o‘xshash jihatlar O‘.Umarbekov va Gyote sentimental qahramonlarini o‘zaro yaqinlashtiradi.

12. Abduqayum Yo‘ldoshevning “Sunbulaning ilk shanbasi” asari ham sentimental nasr tamoyillariga mos keladi. Ayniqsa, sentimental nasrning eng yuksak namunasi Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” romani bilan qiyoslab, tahlil va tadqiq qilinganda bu jihatlar yaqqol namoyon bo‘ldi.

13. Sayohat sentimental adabiyotda faqat syujetni rivojlantirish vositasi emas, balki qahramonning ichki kechinmalarini ochib beruvchi muhim motiv sifatida namoyon bo‘ladi. U qahramonning ma’naviy o‘sishini, hayotiy tajribalarga nisbatan qarashlarini va hissiy iztiroblarini aks ettirish uchun xizmat qiladi. Shu sababli sentimental adabiyotda sayohat motivi nafaqat tashqi, balki ichki olamni ham yorituvchi muhim poetik unsur hisoblanadi.

Umuman olganda, Gyote, O‘.Umarbekov, A.Yo‘ldoshev sentimental qahramonlarning sevgisi, iztirob, fojiaviy taqdiri har qanday kishida achinish, hamdardlik bildirish hissini paydo qilib, adabiyotga go‘zallik, ezgulik urug‘ini sochgan, ijobiy qahramon sifatida ko‘riladi.

SCIENTIFIC COUNCIL DSC.03/30.12. 2019.FIL.19.01 ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES UNDER THE AUTHORITY OF THE ONE-TIME AT ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

NIYAZOVA MUNIRA JUMANAZAROVNA

UZBEK-GERMAN SENTIMENTAL PROSE POETRY AND TYPOLOGICAL FEATURES

(With references from the works "The Sorrows of Young Werther", "My Love, My Beloved", "The First Saturday of Sunbula")

10.00.06 – Comparative Literature, Comparative Linguistics and Translation Studies

DISSERTATION ABSTRACT
of the Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences

Toshkent – 2025

The theme of dissertation for doctor of philosophy (PhD) was registered by the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher Education, Science, and Innovation of the Republic of Uzbekistan under number B.2023.3.PhD/Fil3877.

The dissertation has been carried out at the Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) is placed on the website of the Scientific Council (www.tsuull.uz) and Information-educational portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor: **Yakubov Islamjon Akhmedjanovich**
Doctor of Philological Sciences, Professor

Official opponents: **Yusupova Dilnavoz Rakhmonovna**
Doctor of Philological Sciences, Professor

Kuchimov Ulugbek Quchqorovich
Doctor of Philological Sciences, Associate Professor

Leading organization: **Tashkent State Pedagogical University**

The defense of dissertation will take place on "23" 04 2025 at 16^{00} at the meeting of the Scientific Council awarding scientific degrees DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 under the Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, at the one-time scientific council session. (Address: Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city, 100100. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

The doctoral dissertation can be reviewed in the Information-Resource Centre of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (registration No 334). (Address: 100100, Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city. Phone number: (99871) 281-42-44)

The abstract of dissertation is distributed on "5" 04 2025.
(Protocol at the register № 1 of "5" 04 2025).

Sh.S.Sirojiddinov
Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Academician

O.V.Pardaev
Scientific Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

U.H.Juraqulov
Chairman of the Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (abstract of the PhD thesis)

The topicality of the dissertation. The history of the development of world literary thought over several centuries proves that depicting a person from an epic perspective, as the scope of anthropocentric approaches expanded, led to the emergence, formation, and widespread diffusion of various literary phenomena, movements, and methods in literature. Specifically, in Renaissance literature, the deep study of the human being was placed at the center. Classicism aimed to shape literature based on strict rules and systematize it within the framework of intellectual thought. As a result, irrational movements such as Romanticism, Sentimentalism, and Modernism emerged in literature. Consequently, literature began to express the world of human emotions beyond reality and portray irrational worlds, entering the analysis of the human heart.

Such socio-cultural, literary-aesthetic relations in world literature are studied in comparative-historical terms, including literary types and genres, images, style, and motif issues. Specifically, the typological characteristics of Eastern and Western literature are studied in the context of how both regions' literatures influenced each other, with literary connections and historical typology being examined. Sentimental literature, based on the depiction of human perception, emotion, and feeling, particularly German sentimental prose, its stages of development, its characteristic features, and the role of J.W. Goethe's work in it, all play an important role in the context of Eastern and Western literary thought.

Uzbek literature has not remained unaffected by this literary phenomenon. When the works of our writers, who are following a new stylistic path with renewed poetic thought, are studied and analyzed, they provide new theoretical knowledge in Uzbek literary studies. Examples of sentimental prose and elements of sentimentality in Uzbek literature can mainly be observed in the works of writers such as Ulmas Umarbekov and Abduqayum Yuldoshev. In this regard, our writers have created new works in the sentimental approach, incorporating traditions, images, and motifs from classical literature, adapting them to the national character, and drawing on the experiences of world sentimental writers and poets like L. Stern, J.J. Rousseau, and J.W. Goethe. Therefore, studying and researching the connections and spheres of influence between Uzbek literature and the literature of other countries is of great importance. After all, "as long as literature, art, and culture live, the nation, the people, and all of humanity live meaningfully[25]. In today's literary process, the serious study of the mutual influence of various literary trends and schools is a significant task for comparative literature. This aspect increases the relevance of our research and its necessity in contemporary national literary studies.

The research presented in this dissertation is directly aligned with the tasks set forth in several significant legal and strategic documents issued by the President of the Republic of Uzbekistan. These include the PF-60 decree dated February 28, 2022, on the "Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026," the PF-4947 decree dated February 7, 2017, on the "Strategy for Further Development of

[25] Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017 йил 4 август.

the Republic of Uzbekistan," the PQ-2995 decree dated May 24, 2017, on the "Measures to Further Improve the System for Preserving, Researching, and Promoting Ancient Written Sources," the PQ-3271 decree dated September 13, 2017, on the "Program of Comprehensive Measures for the Development of the System for Publishing and Distributing Book Products, Enhancing Book Reading and Literacy Culture, and Promoting Them," the President's speech during the meeting with representatives of Uzbekistan's creative intellectuals on August 3, 2017, as well as his instructions during his visit to the Writers' Alley in Tashkent on May 20, 2020, regarding increasing the influence of literature. This dissertation contributes significantly to the implementation of the tasks defined in these and other related normative and legal documents.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. The dissertation was carried out within the framework of priority focus of the development of science and technology of the republic I. "Formation of the system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state and the ways of their implementation".

The degree to which the problem has been studied. The issues of sentimentalism and the sentimental genre in literary studies have been explored in the works of literary theorists and scholars such as L.I. Timofeyev, V. Khalizev, Yu. Borev, M.M. Bakhtin, R. Uellek, O. Warren, G.N. Pospelov, K. Rotman, G. Yegher, P. Shelley, R.A. Laskova, I.I. Glukhovskaya, and S.I. Melnikova, who have contributed significantly to literary theory and literary criticism.[26]

In Uzbek literary studies, the theoretical foundations of the sentimental genre and the characteristics of sentimentality have been explored in the works of A. Fitrat, I. Sulton, D. Quronov, U. Jo'raqulov, K. Hamroyev[27], as well as in the research

[26] Литературный энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1987; Словарь литературоведческих терминов. Редакторы-составители Л.И.Тимофеев и С.В.Тураев. – Москва: Просвещение, 1974; Хализев В. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1994; Борев Ю. Эстетика. – Москва: Издательство политической литературы, 1981; Шелли П.Б. Ғарб шамоли. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014; Поспелов Г.Н. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1978; Поспелов Г.Н. Лирика. – Москва, 1976; Rothmann. K. Erläuterungen und Dokumente zu Johann Wolfgang Goethe: Die Leiden des jungen Werthers. Stuttgart, 1971; Jäger G. Die Leiden des jungen Werther. Kommentare, Abbildungen, Materialien zu Die Leiden des jungen Werthers und Plenzdorfs Neuen Leiden des jungen Werther. Wien. 1984; Meyer-Kalkus R. Werthers Krankheit zum Tode. Pathologie und Familie in der Empfindsamkeit // Urszenen. Literaturwissenschaft als Diskursanalyse und Diskurskritik. Frankfurt, 1977; Ласкова Р.А. Творчество Москва. Аглямова: тематика, жанры и поэтика. Дисс.канд. филол. наук, – Казань, 2008; Глуховская И.И. "Сентиментальный натурализм" в русской литературе 40-х годов XIX века (проблема метода). Дисс.канд. филол. наук. – Калинин, 1984; Мельникова С.И. Август фон Коцебу в России: К проблеме русско-немецких театральных связей. Дисс.док. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2004; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Москва: Наука, 1970. – С. 266; Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – Москва, 1988; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Наука, 1979. – С. 85; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Наука, 1973. – С. 207; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Наука, 1979. – С. 422; Р.Уэллек и О.Уоррен. – Москва: Прогресс, 1978. – С. 95–107; Рикёр П. Герменевтика. Этика. Политика: Московские лекции и интервью. – Москва, 1995.

